



DINIY NASHRLAR TILI VA USLUBI

Zilola Abdivaxitova

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
axborot kommunikatsiyalari universiteti
Oliy jurnalistika kurslari
2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada diniy nashrlar tasnifi va mohiyati ochib berilgan va diniy nashrlardagi til vositalari hamda uslubiyati ichki va xalqaro mezonlar orqali tahlil qilingan. Bu borada, O'zbekiston va Turkiya diniy nashrlariga murojaat qilinib, asosli o'xshash jihatlari o'rganilgan. Maqola davomida diniy matnlardagi terminlar, til vositalari va xususiyatlariga ham alohida to'xtalib, diniy axborotlarning farqlari qiyoslangan. Shuningdek, diniy nashrlardagi til vositalaridan foydalanishdagi yutuq va kamchiliklar atroflicha xulosalangan.

Kalit so'zlar: Diniy jurnalistika, Ramazon ko'rgazmasi, rituallar, publisistik uslub, til vositalari, terminlar, izohli lug'atlar, Diyonat jurnali, o'zlashma so'zlar.

Аннотация: В данной статье раскрывается классификация и сущность религиозных изданий, а также анализируется язык и методология религиозных изданий по отечественным и международным критериям. В связи с этим были упомянуты религиозные издания Узбекистана и Турции и изучено их обоснованное сходство. В ходе статьи также обсуждались термины, языковые средства и особенности религиозных текстов, сравнивались различия религиозной информации. Также подробно обобщаются достижения и недостатки использования языковых средств в религиозных изданиях.

Ключевые слова: Религиозная журналистика, выставка Рамадан, ритуалы, публицистический стиль, языковые средства, термины, аннотированные словари, журнал Религия, заимствованные слова.

Annotation: This article reveals the classification and essence of religious publications and analyzes the language and methodology of religious publications through inner and international criteria. In this regard, the religious publications of Uzbekistan and Turkey were referred to and their reasonable similarities were analysed. During the article, the terms, language tools and features of the religious texts were also highlighted, and the differences of the religious information were compared. Also, the achievements and shortcomings in the use of language tools in religious publications are summarized in detail.

Key words: Religious journalism, Ramadan exhibition, rituals, journalistic style, language tools, terms, annotated dictionaries, magazine Religion, borrowings.

Diniy jurnalistikada nashriyotning alohida o'rni bo'lib, bugun e'tiqod erkinligiga ega mamlakatlarda bunga ma'lum darajada e'tibor berib kelinyabdi. Zero, diniy nashrlar ham boshqa nashrlar singari jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, AQSH dagi "Religious journalist's perception of religion. News





and its auditory (“Diniy jurnalistlarning dinni qabul qilish doirasi. Yangiliklar va auditoriya”) deb nomlangan kitobda aytiladiki,

1949-yilda din mutaxassislarining yangi professional uyushmasi paydo bo‘ldi. O‘shandan beri mamlakatning aksariyat yirik gazetalarida diniy mutaxassislar bor edi.¹

Aslida, diniy nashrlar aynan din va mafkuralar aks etgan kitob, gazeta, jurnal, tasviriy san‘at asarlari kabi bosma mahsulotlar hisoblanib, unda maqsad aynan ma‘rifat tarqatish, insonlarni yaxshilikka chaqirish va yomonlikdan qaytarish hisoblanadi. Bundan tashqari bugun ham dunyo dinlari ta’siri shaxslar hayotida, rituallarida, odat va an‘analarida ham o‘z aksini topib kelmoqda. Bu holatda jamiyatga tushunchalar berish, ilm tarqatish orqali diniy jurnalistika, xususan, diniy nashrlar ham katta xizmat ko‘rsatmoqda. Masalan, turkiyalik Shahin, (2011: 13) "Ommaviy axborot vositalarida Ramazon va diniy bayramlar: Jumhuriyat gazetasi (1924-1941) misoli" nomli magistrlik dissertatsiyasida diniy nashrlardagi xabarlarda Ramazon taqdimotining yoritilishini ko‘rib chiqdi. Tadqiqotda Ramazon oyining boshida Ramazon haqidagi yangiliklar, Ramazon o‘yin-kulgilari, taom tayyorlash, diniy tayyorgarliklar, nog‘ora chalib Ramazonni ommaga e‘lon qilish, iftor va imsak vaqtlarini e‘lon qilish, masjidlarda olib borilgan tayyorgarliklar, Ramazon uchun maxsus tashkil etilgan transport xizmatlari, xaridlar, to‘pdan otish, Mahyalar, va'zlarning milliy va iqtisodiy mazmuni va Beyazit masjidi hovlisida Ramazon ko‘rgazmasining ochilishi aks etgan edi.² Har bir nashr turida bo‘lgani kabi diniy nashrlar uslubi ham asosan Publisistik uslubda aks ettiriladi. Diniy nashrlarda ham matbuot uchun umumiy bo‘lgan til va uslub qoidalari muhim bo‘lib ulardan quyidagilarni tahlil qilish mumkin:

— Diniy nashrlardagi bosh maqola, xabar, hisobotlarda adabiy til me‘yorlariga amal qilinadi, o‘zlashma so‘zlar va atamalardan erkin foydalaniladi. Masalan “Hidoyat” jurnalining 2013-yilgi sonlaridan biridagi “Imom A‘zam mazhablarining asosi” bobida quyidagi abzasni tahlil qilsak:

“Agar masalaning hukmi Qur‘ondan topilmasa, payg‘ambarimiz(alayhissalom) hadislaridan ya‘ni sunnatlaridan olardilar. Agar hadislardan ham topilmasa, sahobayi

¹ Judith M. Buddenbaum. Religion journalists’ Perceptions of Religion News and Its Audience. Mass Communication and Society Division of the Association for Education in Journalism and Mass Communication. National convention. San Antonio, Texas, August 1-4, 1987

² Muzaffer Şahin, Doç. Dr., Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi İletişim Fakültesi, E-Posta: muzaffer.sahin@hbv.edu.tr Zakir Avşar, Prof. Dr., Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi İletişim Fakültesi, E-Posta: zakir.avsar@hbv.edu.tr
<https://doi.org/10.47998/ikad.1088273>





kirom soʻzlaridan, yaʼni, asardan olardilar. Agar sahobalar fikrlarida har xillik boʻlsa, qay bir sahobaning fikri Qurʼonga yoki sunnatga yaqinroq boʻlsa, ushani olar edilar.”³

Ushbu abzasda punktuatsion, uslubiy, imloviy, soʻz yasash va boshqa adabiy meʼyorlarga yetarlicha amal qilingan. Matndagi “sunnat”, “sahoba” kabi soʻzlar arab tilidan oʻzlashgan boʻlib, oʻz navbatida diniy atama ham hisoblanadi.

— Matbuotdagi har qanday nashrlarda(diniy nashrlarda ham) ekspressivlik, taʼsirchanlik, ommaviylik, munozaralik kabi tamoyillar ustun turadi.

— Boshqa nashrlar singari diniy nashrlarda ham terminlardan keng foydalanilib, diniy matnlar bilim va atamalar manbayi sifatida ham koʻrilishi mumkin.

Diniy nashrlardagi tilda lugʻat boyligi ham muhim ahamiyatga ega. Bu uchun esa diniy material tayyorlayotgan har bir shaxs (jurnalist, olim, yozuvchi, taqdiqotchi v.h.k.) diniy bilim, istiloh va lugʻatlardan xabardor boʻlishi zarur. Terezia Roncakova oʻzining “Mediadagi diniy materiallar tili” (Religion language in media) nomli tadqiqot ishida shunday deydi:

Har qanday tilning asosiy elementi va belgilovchi omili lugʻatdir. Shuni eʼtirof etish kerakki, diniy tilning lugʻati ancha oʻziga xosdir. Tadqiqotimizda ishtirok etgan jurnalistlar gunoh, azizlik yoki fazilat, ozor, inoyat, poklik kabi aniq atamalarni qoʻllash qiyinligini taʼkidladilar.⁴

Oʻzbek diniy nashrlarida ham bu narsa aniq namoyon boʻladi. Bu borada diniy matnlar bilan ishlash borasidagi maqolalarni ham oʻrganar ekanmiz quyidagi maʼlumotlar bizni chetlab oʻtmadi: Oʻzbek diniy matn tadqiqi haqida gap ketar ekan, prof. J.Omonturdiyevning bu boradagi xizmatlarini alohida taʼkidlash joiz.

Muallifning tasdiqlashiga koʻra,«...diniy mavzuda gapirilganda, voiz odatda, «bismillo» bilan boshlab, Allohga hamdu sano, Paygʻambarga naʼt, durud aytish, sahobalarga xayriyat (yaxshilik) tilash bilan boshlab, «As-salomu alaykum va rahmatullohu va barakotuhu» iborasi bilan tugatadi. Oʻrni bilan, nutq madaniyati talabiga koʻra, nutqiy kamtarlik uchun Allohga shukr, Allohga shukrlar boʻlsin, Alhamdulillah, Allohga hamdu sanolar boʻlsin, Toʻgʻrirogʻini Alloh biladi (Vallahu aʼlam bissavab), inshoolloh, Xudo xohlasa, Xudo saqlasin, nauzi Billah (Alloh saqlasin), Allohning marhamati, Allohning irodasi kabi iboralar qoʻllaniladi. Alloh

³ Hidoyat jurnali//—2013.—№9.—B.12.

⁴ Rončáková, Terézia. 2009b. At the Intersection of Religious and Journalistic Style II. How the Church Speaks Media Language. Ružomberok: FF Ku in Ružomberok





nomi aytilganda, Subhonahu va taolo (Pok va oliy Zot), taborak va taolo (barakotli va oliy), olamlar tarbiyakunandasi (rabbisi), Parvardigor (tarbiyakunanda), Parvardigori olam, Yaratgan, Yaratgan egam yoki uning 99 ismi sifati (Al-Asma ul-husno – Go'zal ismlar); Payg'ambar nomiga Mustafo (Tanlangan), Janob, Hazrat, Faxri koinot, ikki olam sarvari, Rasuli Akram, Rasulilloh sallallohu alayhi va sallam; Sahobai kiromlar nomlariga roziyollohu anhu (Alloh undan rozi bo'lsin) kabi yuksak hurmat ifodalovchi so'z va iboralar qo'shib aytiladi».⁵

Albatta, diniy atamalardan unumli foydalanish juda yaxshi holat, ammo shuni ham ta'kidlagan bo'lardikki, diniy nashrlardagi diniy terminlar o'z ta'rif va tafsilotiga ega bo'lsa nur ustiga a'lo nur bo'lardi. Chunki diniy gazeta yoki jurnallarni o'qiy boshlagan har bir shaxs ham asl ma'no mohiyatni to'la tushunishi zarur. Shundagina har qanday matbuot mahsulotidan maqsad hosil bo'ladi.

Masalan: O'zbekiston musulmonlar idorasi FATVO HA'ATI-JUM'A MAVIZASI 2019-yil 8-mart soni bilan bosilgan quyidagi tezisdan parchaga e'tibor beraylik: "Ul zot bundan tashqari Allohdan vahiy qabul qilardilar, doimiy ibodatlar va boshqa buyuk ishlar bilan mashg'ul bo'lardilar. Ammo mana shuncha ishlarga qaramasdan, zimmalaridagi ayllarining haqlarini ham unutmaganlar. Ularni axloqqa chaqirib tarbiyalashni ham, er-xotinlik munosabatlarini ham yoddan chiqarmaganlar."⁶

Ushbu jumalardagi "vahiy", "ibodat" kabi o'zbek adabiy tiliga kirsa-da kishida biroz bilim talab qiladigan so'zlar bo'lib, ayniqsa, bular tezida emas gazeta, kitob va jurnallarda kelgan payt qavs ichida yoki matn tagidan atama sifatida izoh berib ketilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Turkiyadagi "Diyonat" jurnalning 2018-yil 330-sonida professor Tahsin Go'rgunga tegishli "Din va til xususida" deb momlangan qismida:

"Til mohiyatan hayotni gorizontol va vertikal ravishda olib boradi. Gorizontol ravishda: til odamlarga birinchi navbatda, muhimlik va ahamiyatlilik orasini farqlashga imkon beradi. Til bo'lmasa, inson duch keladigan narsalar orasida nimani afzal ko'radi, degan savolga javob topa olmas edi. Bizga farz, vojib, sunnat, mustahab, muboh, harom, makruh va mufsid deb bilgan insoniy xatti-harakatlarning hukmlari, ya'ni ularning ishiga mas'ul bo'lganlarni tasniflash faqat til orqali amalga oshiriladi."⁷

⁵ Nilufar Tursunpo'latovna Salohiddinova. Diniy matnlarni shakllantiruvchi vositalar. Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423, VOLUME 1 | ISSUE 6 ISSN 2181-1784.

⁶ Ўзбекистон мусулмонлари идораси ФАТВО ҲАЙЪАТИ ЖУМА МАВЪИЗАСИ "08" март 2019 й.в

⁷ Diyanet – Aylık Dergi Haziran 2018 Sayı: 330





Bu yerda ham “farz”, “sunnat”, “vojib”, “mustahab”, “muboh”, “makruh” va “mufsid” kabi atamalarni ko‘rib turibmiz. Aynan, bu so‘zlar ham turk tili uchun o‘zlashgan hisoblanib, diniy matnlarda keng qo‘llaniladi.

Bundan tashqari, asli turkcha bo‘lgan va o‘zbek tiliga tarjima qilingan Mehmet Olaqoshning “Yashash fursati” nomli kitobida quyidagi jummalarga ko‘zingiz tushadi:

“Zilzilaning Hayydan emas, faydan ekanligi... Tushunmadim... Hayy Allohning ismlaridan biridir. Azaliy va abadiy tirik, doimo tirik ma’nosini bildiradi. Demoqchimanki, bu aqlsizlar zilzilalarning Hayy bo‘lgan Allohdan emas, Alloh yaratgan yer osti jinlari - faydan deb ko‘rsatmoqchi bo‘ldilar...” Ushbu matndan parchada Hayy va fay so‘zlari o‘zbek adabiy tili lug‘atida ham mavjud emas ammo asarda ularga berilgan ta’rifga guvoh bo‘lamiz. Bu esa asarning yutuqlaridan hisoblanadi. Ya’ni o‘quvchiga hech qanday savolga hojat qoldirmaydi va erkin tushunishga ko‘maklashadi. Shuni xulosa qilib ayta olamanki, har qanday nashrdagi kabi diniy nashrlarda ham ma’lum xususiyatlar bo‘lib, diniy matnlardagi uslub va til vositalari muhim ahamiyatga ega va ko‘proq o‘rganilishi kerak bo‘lgan ishlardandir. Kishi diniy matnga kirshishdan avval ma’lum bir mahorat, bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi zarur. Diniy nashrlarga oid bo‘lgan jurnal, gazeta, kitob va boshqa mahsulotlar, albatta, qonunda ko‘rsatilganidek O‘zbekiston Din ishlari bo‘yicha qo‘mita nazoratidan o‘tishi ham qonun doirasida ham ilmiy tomondan juda to‘g‘ridir. Ammo maqolalar, kitoblar, tarjima asarlar ko‘payib borayotgani sabab bu nazorat ma’lum bir kichik jabhalarga ham yuklatilsa yana ham maqsadga amuvofiq bo‘lardir. Asosiysi, nashrlarni mutaxassislar o‘rganishi va tekshirishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Judith M. Buddenbaum. Religion journalists’ Perceptions of Religion News and Its Audience. Mass Communication and Society Division of the Association for Education in Journalism and Mass Communication. National convention. San Antonio, Texas, August 1-4, 1987
2. Muzaffer Şahin, Doç. Dr., Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi İletişim Fakültesi, E-Posta: muzaffer.sahin@hbv.edu.tr Zakir Avşar, Prof. Dr., Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi İletişim Fakültesi, E-Posta: zakir.avsar@hbv.edu.tr
<https://doi.org/10.47998/ikad.1088273>
3. Hidoyat jurnali//—2013.—№9.—B.12.





4. Rončáková, Terézia. 2009b. At the Intersection of Religious and Journalistic Style II. How the Church Speaks Media Language. Ružomberok: FF Ku in Ružomberok.
5. Nilufar Tursunpo'latovna Salohiddinova. Diniy matnlarni shakllantiruvchi vositalar. Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423, VOLUME 1 | ISSUE 6 ISSN 2181-1784.
6. Ўзбекистон мусулмонлари идораси ФАТВО ҲАЙЪАТИ ЖУМА МАВЪИЗАСИ “08” март 2019 й.в
7. Diyanet—Aylık Dergi Haziran 2018 Sayı: 330

